



XOTIN-QIZLARNING OG'IR IJTIMOYIY AHVOLGA TUSHISH SABABLARI
VA OQIBATLARI

Isamutdinov Ravshan Raxmonovich

Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti

loyiha katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarning og'ir ijtimoiy ahvolga tushishiga sabab bo'layotgan omillar tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor iqtisodiy mustaqillikning yetishmasligi, huquqiy savodxonlik darajasining pastligi, gender stereotiplari, oilaviy zo'ravonlik hamda psixologik bosim kabi muammolarga qaratilgan. Shuningdek, ushbu omillarning oqibati sifatida ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy salomatlikning buzilishi, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, noqonuniy faoliyatlarga moyillik va jamiyatning barqaror taraqqiyotiga tahdid solinishi yoritiladi. Maqolada mavjud muammolarning oldini olishda davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalla tizimining integratsiyalashgan faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Аннотация. В статье представлен системный анализ факторов, способствующих попаданию женщин в тяжёлое социальное положение. Основное внимание уделено таким причинам, как отсутствие экономической независимости, низкий уровень правовой грамотности, гендерные стереотипы, семейное насилие и психологическое давление. Также рассматриваются последствия данных явлений: социальная изоляция, ухудшение психического здоровья, негативное влияние на воспитание детей, склонность к противоправной деятельности и риски для устойчивого развития общества. В статье предложены практические рекомендации по предотвращению данных проблем путём усиления межсекторного взаимодействия государства, институтов гражданского общества и системы махалли.

Annotatsion. This article provides a systematic and comprehensive analysis of the key factors contributing to women falling into vulnerable social conditions. The study focuses on the lack of economic independence, low levels of legal literacy, persistent gender stereotypes, domestic violence, and psychological pressure. The consequences of these factors are also examined, including social isolation, deteriorating mental health, negative effects on child upbringing, a tendency toward unlawful activities, and threats to societal stability. The article offers practical recommendations for mitigating these issues through strengthened intersectoral cooperation between the state, civil society institutions, and local community structures.

Kalit so'zlar. Xotin-qizlar, ijtimoiy ahvol, iqtisodiy mustaqillik, huquqiy savodxonlik, gender stereotiplari, oilaviy zo'ravonlik, jamiyatdagi o'rin.



Ключевые слова. *Женщины, социальный статус, экономическая независимость, правовая грамотность, гендерные стереотипы, домашнее насилие, место в обществе.*

Keywords. *Women, social status, economic independence, legal literacy, gender stereotypes, domestic violence, place in society.*

Kirish. Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini tobora kengayib bormoqda. Ularning ta'lim olishi, ish bilan ta'minlanishi, davlat boshqaruvida ishtirok etish kabi sohalaridagi faolligi ortib borayotgan bo'lsa-da, hanuzgacha ayrim ijtimoiy qatlamlarda xotin-qizlarning og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolish holatlari uchrayib turibdi. Bu holat, asosan, ularning iqtisodiy jihatdan mustaqil emasligi, ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi, huquqiy savodxonlikning pastligi, shuningdek, an'anaviy stereotiplar va madaniy bosimlar bilan izohlanadi.

Xususan, qishloq joylarida yoki iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan hududlarda yashovchi ayollar ko'pincha mehnat bozorida o'z o'rnini topa olmaydi, zarur kasb-hunarga ega emas, yoki davlat tomonidan taklif etilayotgan dasturlardan bexabar bo'ladi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini pasaytiradi, o'z hayotini mustaqil tashkil etishiga to'sqinlik qiladi va ularni ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi.

Bundan tashqari, jamiyatdagi gender stereotiplari — ya'ni, ayolning asosiy vazifasi faqatgina uy-ro'zg'or ishlari, farzand tarbiyasi bilan bog'liq degan noto'g'ri qarashlar — ko'pchilik hollarda ayollarni o'z huquqlari va salohiyatlarini ro'yobga chiqarishdan to'xtatmoqda. Ayni paytda oilaviy zo'ravonlik, psixologik bosim, erkaklarga iqtisodiy bog'liqlik ham ularning ijtimoiy himoyasizligiga sabab bo'lmoqda.

Shu boisdan, xotin-qizlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida yetarli ma'lumot yetkazish, huquqiy yordam tizimini kengaytirish, mahalliy darajadagi qo'llab-quvvatlovchi institutlarni kuchaytirish va eng muhimi — jamiyatda ayollar haqidagi qarashlarni o'zgartirish dolzarb masalaga aylangan.

Asosiy qism.

Xotin-qizlarning og'ir ijtimoiy ahvolga tushish holatlari — bu tasodifiy yoki alohida sabablarga bog'liq bo'lgan vaziyat emas. Bu holat, odatda, turli ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va psixologik omillarning o'zaro murakkab ta'siri natijasida yuzaga chiqadi. Har bir ayol hayotida bunday og'irlik turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin — ba'zilarida bu moddiy qiyinchilik, boshqalarida esa ruhiy bosim, zo'ravonlik, huquqiy savodsizlik yoki ijtimoiy izolyatsiya shaklida ifodalanadi.

Ushbu omillar ko'pincha bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan, iqtisodiy mustaqillikning yo'qligi ayolni oilaviy zo'ravonlikka chidashga majbur qilishi mumkin, chunki u moliyaviy jihatdan turmush o'rtog'iga yoki qarindoshlariga to'liq bog'langan. Yoki ta'lim ololmagan, kasb-hunarga ega bo'lmagan ayol mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lolmaydi, natijada u o'z hayotini o'zgartirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.



Bundan tashqari, ijtimoiy madaniyat va qadriyatlar tizimidagi gender stereotiplari, ayollarning faqatgina "ona", "turmush o'rtoq" yoki "uy bekasi" roliga ko'rilishi ularning shaxs sifatida rivojlanishini cheklaydi. Ayrim hollarda esa, huquqiy savodxonlikning pastligi sababli ayollar o'z huquqlarini anglab yetmaydi va mavjud imkoniyatlardan foydalanishga jur'at eta olmaydi. Natijada, ayol muammolari bilan yolg'iz qoladi, ruhiy tushkunlik, ishonchsizlik, hatto ijtimoiy hayotdan to'liq chekinish holatlariga olib keladi.

Shuningdek, jamiyatdagi axborot va resurslarga bo'lgan noadolatli taqsimot, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi ayollar orasida imkoniyatlar tengsizligini kuchaytiradi. Ular kasb-hunar kurslari, moliyaviy yordam dasturlari, psixologik maslahat markazlari kabi resurslardan bexabar bo'lishi mumkin. Bu esa ularda tizimga nisbatan ishonchsizlik va befarqlikni kuchaytiradi.

Umuman olganda, xotin-qizlarning og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishi — bu yakka holat emas, balki tizimli va chuqur ildiz otgan muammolarning natijasidir. Ushbu muammoni hal qilish uchun esa kompleks va ko'p bosqichli yondashuv, davlat, fuqarolik jamiyati, mahalla tizimi va ommaviy axborot vositalarining uzviy hamkorligi zarur.

O'zbekiston aholisining teng yarimidan ko'prog'ini xotin-qizlar tashkil qiladi. Yurtimizda an'anaviy tarzda xotin-qizlar masalasiga juda katta e'tibor qaratiladi. Hozirda xotin-qizlar muammolarini keng o'rganish va hal etishning innovatsion mexanizmlari ishlab chiqilmoqda¹⁰⁰. Butun mamlakat bo'ylab "ayollar daftari" joriy etilganligi buning isbotidir.

Dunyoda hech bir inson tayziq zo'ravonlikdan mutloq himoya qilinmagan, deb ayta olmaydi. Zo'ravonlik hodisasi atrofimizda, turli odamlar hayotida uchrab turadigan ijtimoiy illatlardan biridir. Buning oqibatida turli muammolar kelib chiqmoqda.

Xotin-qizlarning og'ir ijtimoiy holatga tushib qolishi shunchaki shaxsiy muammo emas, balki butun jamiyat ijtimoiy barqarorligiga, demografik muvozanatga va taraqqiyotga ta'sir etuvchi omilga aylanadi. Quyida bu jarayon natijasida vujudga kelayotgan asosiy muammolar yoritiladi:

Ijtimoiy izolyatsiya va passivlik kuchaymoqda. Ayollar jamiyatdagi faoliyatlardan — ta'lim, mehnat, fuqarolik faolligi, ijtimoiy hayot — chetlanmoqda. Ular o'zlarini jamiyatning teng a'zosi sifatida his qilmay qo'yadi. Bu esa:

- Mahalla va davlat dasturlarida ayollar ishtirokining sustlashuvi;
- O'zini yolg'iz, keraksiz va zaif his qilish tuyg'ularining kuchayishi;
- Mahalliy darajadagi ijtimoiy muhitda ayollarning ovozining bo'g'ilishiga olib kelmoqda

Ruhiy salomatlik buzilishi va psixologik tushkunlik

Og'ir hayotiy sharoit, moliyaviy yetishmovchilik, zo'ravonlik, bosim ostida yashash ayollarning ruhiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda:

¹⁰⁰ Egamberdiyeva, N.M., Tuychiyeva. G.G., Ismaylova, R.N. Tauziq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko'rsatish: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2022. – 144 b.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



- Depressiya, xavotir va asabiylik holatlari ortmoqda;
- O'z joniga qasd qilish holatlariga moyillik oshmoqda;
- Psixologik travmalar davolanmagan holda ayollarda uzoq muddatli stress holatini shakllantirmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ruhiy tushkunlik bilan kurashayotgan ayollarning aksariyati psixologik yordamga murojaat qilmasdan, muammoni ichida saqlab yashaydi.

Bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir

Ayolning ijtimoiy va psixologik muammolari, albatta, uning farzandlariga ham ta'sir ko'rsatadi:

- Bolalarda ruhiy muvozanat buzilishi, qo'rquv va ishonchsizlik rivojlanadi;
- Ayolning ruhiy tushkunligi bolalar bilan hissiy aloqaning susayishiga olib keladi;
- Muqobil ta'lim va tarbiya imkoniyatlarining cheklanishi kelajak avlod salohiyatini pasaytiradi.

Huquqiy yordam tizimiga ishonchsizlik

Ko'p hollarda ayollar o'z muammolarini oshkor etishga jur'at etmaydi. Sabablari:

- Mahalliy darajada huquqiy yordamga bo'lgan ishonchsizlik;
- Ariza yozganidan keyin bosim kuchayishidan qo'rqish;
- Mahalla, jamoa yoki oilaviy muhitdagi "sharmandalik" qo'rquvi.

Natijada, huquqiy muammolar yillar davomida yechimsiz qoladi, bu esa ularni yanada murakkablashtiradi.

Jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir

Ayol – jamiyatning yarmi. Agar uning imkoniyatlari to'liq ro'yobga chiqmasa, bu nafaqat o'sha ayolning, balki butun jamiyatning salohiyatini pasaytiradi:

- Mehnat bozorida ayollar salohiyati to'liq ishlatilmaydi;
- Ijtimoiy tenglik buziladi;
- Gender muvozanatiga erishish qiyinlashadi.

1-jadval.

Xotin-qizlarning og'ir ijtimoiy holatga tushishida sabab va oqibatlar

Yo'nalish	Asosiy sabablar	Asosiy oqibatlar
<i>Ijtimoiy izolyatsiya</i>	Ijtimoiy yordamdan chetlanish	Faollik susayadi, yolg'izlik kuchayadi
<i>Ruhiy tushkunlik</i>	Moliyaviy bosim, zo'ravonlik	Depressiya, o'z joniga qasd qilish xavfi
<i>Bolalarga ta'sir</i>	Onaning ruhiy holati yomon	Bolalarda ishonchsizlik, hissiy uzilish
<i>Noqonuniy faoliyatga o'tish</i>	Iqtisodiy muhtojlik	Odam savdosi, tilanchilik, ekspluatatsiya
<i>Huquqiy yordamdan kechish</i> voz	Qo'rqish, ishonchsizlik, sharmandalik tushunchasi	Muammo yechilmaydi, yillar davomida kuchayadi



Yuqoridagi 1-jadval xotin-qizlarning og'ir ijtimoiy holatga tushishida sabab va oqibatlar qanday chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Ijtimoiy yordamdan chetda qolish, ruhiy bosim, iqtisodiy yetishmovchilik va huquqiy qo'llab-quvvatlashning zaifligi ayollarni izolyatsiyaga, ruhiy tushkunlikka va ba'zida noqonuniy faoliyatlarga undamoqda. Bu holatlar nafaqat ayolning o'zi, balki uning farzandlari va keng jamiyat uchun ham salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Shu sababli, ushbu muammolarni erta aniqlash va tizimli yondashuv asosida hal etish dolzarb vazifadir.

Taklif va tavsiyalar

1. **Mahalla darajasida xotin-qizlar holatini erta aniqlash tizimini kuchaytirish.** Mahallalardagi “xotin-qizlar faoli”, “psixolog” va “maslahatchi” kabi mutaxassislarning ishini yagona platformaga bog'lagan holda, xavf ostidagi ayollarni erta aniqlash, kuzatish va tizimli ravishda yordam ko'rsatish tizimini yaratish zarur.
2. **Psixologik va huquqiy maslahat markazlarini ko'paytirish.** Har bir tumanda bepul psixologik va huquqiy yordam ko'rsatadigan markazlar faoliyatini kengaytirish lozim. Ayniqsa, zo'ravonlik, tushkunlik yoki shaxsiy huquqlardan bexabar bo'lgan ayollar uchun telefon orqali maslahat xizmatlari tashkil etilishi muhim.
3. **Ayollarni iqtisodiy mustaqillikka olib chiqish dasturlarini kengaytirish.** Kasb-hunar o'rgatish kurslarini ko'paytirish, mikrokredit va grant dasturlarini soddalashtirish, chekka hududlardagi ayollar uchun mobil o'quv kurslarini yo'lga qo'yish lozim.
4. **Axborotga kirishni yengillashtirish.** Ayollar uchun mo'ljallangan imkoniyatlar, huquqiy yordam, grantlar, ishsizlikdan himoya kabi barcha dasturlar haqida aniq, sodda va tushunarli axborot yetkazib beruvchi Telegram-bot, mobil ilova yoki mahalla xabarnomalari orqali muntazam xabardor qilish mexanizmini ishlab chiqish kerak.
5. **Oila institutlarini mustahkamlash.** Nikohdan oldin psixologik tayyorgarlik, oila mas'uliyatlari, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish bo'yicha maxsus o'quv dasturlari joriy etilishi, ayniqsa yosh oilalarga amaliy yordam ko'rsatish tizimi zarur.
6. **Monitoring va tahlil mexanizmlarini kuchaytirish.** Har yili xotin-qizlarning ijtimoiy holati bo'yicha indikatorlar asosida baholovchi monitoring o'tkazilib, aniqlangan muammolar asosida mahalliy va respublika darajasida choralar ishlab chiqilishi lozim.

Adabiyotlar

1. Musurmanova O., Norqulov., Abdurahimova F. Mahallada oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari: uslubiy qo'llanma / - Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. - 140 b.
2. Миралимов Ш. Маҳалла меҳри. – Т.: Ёшлар медиапринт, 2021. – 100 б.
3. Egamberdiyeva, N.M., Tuychiyeva. G.G., Ismaylova, R.N. Tauziq va zo'rovonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko'rsatish: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 144 b.





4. Patel V. et al. (2018). *Role of community health workers in women's mental health care in LMICs*. [PMC5803443](#)
 5. World Health Organization. (2021). *Mental health of women in community systems*.
 6. UN Women. (2020). *Community-based approaches to gender-based violence prevention*.
 7. National Institute of Mental Health. (2021). *Psychosocial interventions for vulnerable women*.
 8. Zastrow, C., & Kirst-Ashman, K. (2021). *Understanding Human Behavior and the Social Environment*.
- UNICEF (2022). *Gender equality and psychosocial protection services*